

PAPER

TURLI YOSHDA INGLIZ TILINI O‘QITISH MUAMMOLARI

Ramazonova Nafisa Ixtiyor qizi ^{1,*}

¹O‘qituvchi, O‘zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrası, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

* ramazonova.nafisa@bsmi.uz

Abstract

Ushbu maqolada til o‘qitishning turli yosh bosqichlaridagi farqlar, uchraydigan qiyinchiliklar, ustunliklar va qo‘llaniladigan metodikalar yoritiladi. "Ingliz tilini bolalarga o‘rgatish jarayonida yosh guruhlarining psixologik va kognitiv rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish muhim..."

Key words: til o‘rganish, tilni bilish, o‘yinlarga asoslangan metodlar, yosh bosqichlari, til bilish, online maqolalar.

KIRISH

Hammamizga ma'lumki, ta'lim mamalakatimizdagi barcha jabhalar singari yildan yilga rivojlanib bormoqda. Buning yaqqol natijasi o'laroq Prezidentimiz tomonidan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, jumladan, "Yosh kitobxon" tanlovi, "Vazir stipendiyasi" "Hokim stipendiyasi" "Eng yaxshi xorijiy til maktabi" kabilarni keltirish mumkin. Ma'lumki, yildan yilga til o'rganuvchilarning yoshi yosharib bordi. Ilgari ingliz tili 5-sinf dan boshlab o'rgatilgan bo'lsa, endilikda ingliz tili bog'cha davridan va keyinchalik maktabning 1-sinfidanoq o'rgatiladigan bo'ldi. Bu albatta, o'quvchiga til ko'nikmalarini ertaroq va tezroq o'zlashtirish

imkonini bera boshladi. Buning isboti o'laroq kunora ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekistonning turli burchaklaridagi turli yoshlar til sertifikatlarini qo'lga kiritayotganlari yoki IELTS imtixonlaridan eng yuqori ballarni qo'lga kiritayotganlari bu quvonarli holat. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug'i, bilmagani muammo" Ta'lim, tillarni o'qitish haqida so'z boradi ekan, ushbu jarayonni yosh chegaralariga qarab bir necha bosqichlari bo'lish maqsadga muvofiqdir. Chunki turli yosh davrlarida insonning rivojlanish bosqichlari bir biridan farqli bo'lishini inobatga olgan holda, bu yondashuv to'g'ridir. Til o'rganuvchilarni 4 guruhga bo'lish mumkin

Compiled on: December 4, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

- Maktabgacha yosh o'rganuvchilarni (3 – 5 yosh)
- Boshlang'ich sinf o'rganuvchilari (6 – 12 yosh)
- Yuqori sinf o'rganuvchilari (13 – 17 yosh) va
- Katta yoshli o'rganuvchilar (18+ yosh).

MAQSAD: Turli yosh davrlarida ingliz tili o'qitishning pedagogik jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR

So'nggi yillarda til o'rganuvchilarning yoshi sezilarli darajada kamaydi. Ilgari ingliz tili faqat 5-sinf dan boshlab o'rgatilgan bo'lsa, hozirda u bog'cha yoshidan boshlab, shuningdek, maktabning 1-sinfida ham o'qitilmoqda. Bu esa o'quvchilarga til ko'nikmalarini tezroq shakllantirish imkonini bermoqda. Buning tasdig'i sifatida O'zbekistonning turli hududlarida yoshlarning til sertifikatlarini qo'lga kiritayotgani va IELTS imtihonlaridan yuqori ball olish holatlari kundan kunga ko'paymoqda.

MAKTABGACHA YOSHDAGI O'RGANUVCHILAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarga yangi bilim o'rganish uchun motivatsiya yo'q, fikrlar tarqoq, bolalar bu yoshda judayam energetik, o'yinqaroq. Bu davrda bolalar bilan sinfni tinch tutib turish, ularni e'tiborini jalb qilib turish ancha qiyin. Shuning uchun ham o'z tajribamdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, bog'cha yoshdagi bolalar bilan ishlash qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Chunki ular bilan doim o'ynash, sakrash, qo'shiqlar aytish muhim. O'z tajribam hamda izlanishlar natijalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktabgacha yosh davridagi bolalarda ko'proq kinestetik o'rganish uslubi ustunroq bo'ladi. Negaki, ular raqs tushib qo'shiq aytsa, masalan, oddiygina "Peel banana" "Head, shoulders, knees and toes" qo'shiqlari misolida oladigan bo'lsak, bu qo'shiqlarni ikki yoki uch marotaba takrorlatishning o'zi kifoya. Bola qo'shiqni unutmaydi, sababi o'ynab bajardi, bajargani yodida qoldi.

BOSHLANG'ICH SINF O'RGANUVCHILAR

Bu yosh oralig'ida ham bolalarning darsga bo'lgan e'tiborini yig'ib olish biroz mushkul, ular darslar davomida zerikishlari, yozishdan takrorlashdan charchashlari tabiiy hol bo'lganligi sababli dars

davomida mavzuga oid o'yinlar, tanaffuslar, xullas bolani o'rnidan turg'azib o'ynatish va dam berish darsning samaradorligiga oz bo'lsa-da hissa qo'shadi. Bu yosh uchun mos o'yinlar sifatida "Kill the fly" "Who am I?" aqliy hujum, guruhlariga bo'linib ishlash kabilar mos keladi.

Yana bunga qo'shimcha ravishda:

- Interaktiv va o'yinga asoslangan metodlardan foydalanish: Bunday o'yinlar bolalarda tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, darsning mazmundorligiga ijobiy hissa qo'shadi.

- Ko'rgazmalardan foydalanish: Kartochkalar, rasmlar, haqiqiy obyektlar, shakllar yangi so'zlarni yaxshiroq tushunish va esda saqlashga yordam beradi.

- Doimiy tartib va takrorlash: Dars uchun maxsus tartiblar yaratish va asosiy lug'atlarni doimiy qayta takrorlash tilning doimiy ishlatiluvchi qismini yodda saqlashga xizmat qiladi.

- Ota-onalar ko'magi: Ota-onalarning ham ta'lim jarayoniga jalb etilishi til o'rganuvchilar uchun ijobiy jarayondir. Chunki faqatgina dars davomida o'rganish va takrorlash emas, balki uyda ham ta'limga e'tibor berilishi va o'rganilgan ma'lumotlar savol-javoblar tarzida takrorlanish bolaning o'rganish sifatini oshiradi."

YUQORI SINF O'RGANUVCHILARI

Yuqori sinf o'rganuvchilari yuqorida sanab o'tilgan ikki guruh o'quvchilaridan farqli tomonlari mavjud. "Sababi yuqori sinf o'quvchilarini hayratlantirish va darsga qiziqtirish biroz mehnat talab qiladi. Bu davrda hamma o'quvchilar ham darsga, tilga qiziqqanligi uchun til o'rganishga qiziqish bildirmaydi, ba'zilar qiziqsa, ba'zilar maktabdagi majburiy fan ekanligi uchun o'qishi mumkin. Shu sababli bu davrda o'quvchilarning til bilish darajasi ham turli xil bo'lishi tabiiy. Bu esa o'qituvchilar har bir o'rganuvchiga alohida yondashuvni talab etadi. Bunga misol tariqasida ularga qiziq bo'lgan biror sohani tanlash (masalan, kino, multfilm, mashhur insonlar, siyosat, sport) va shu orqali ularni qiziqtirish mumkin. Chunki bolalarga ularga qiziq va tushunarli bo'lgan mavzular orqali til o'rganishga qiziqtirish ancha yaxshi uslub. Yana shunga o'xshash ijtimoiy tarmoqlar (You Tubeda grammatik videodarslardan, Tiktokdagi videolardan gapirish ko'nikmasini oshirish uchun mashqlar sifatida foydalanish ham mumkin".

Lekin bu yoshda til o'rgatishning qulay tomonlari ham mavjud. Bu yoshda o'quvchilar ancha tartibli bo'lishadi va bu darsni tushuntirishni ancha osonlashtiradi. Yana o'quvchilarni guruhlariga bo'lib ishlashda ham qiyinchiliklar tug'ilmaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'rganishni istamaydigan o'quvchining o'zi yo'q. Muhimi, yondashuvning to'g'riligi.

KATTA YOSHDAGI TIL O'RGANUVCHILAR

Bu yoshdagi til o'rganuvchilar yuqorida sanab o'tilganlaridan katta farq qiladi. "Sababi, ularning til o'rganishga bo'lgan talablari maqsadlidir. Masalan, ba'zilar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun, yana kimdir chet elga ketish uchun, kimdir sayohat uchun va hokazo. Odatda, katta yoshdagi o'rganuvchilar anchagina boy hayotiy tajriba, maqsad va turli motivatsiyalar bilan keladilar. Ular o'zlarini til o'rganishga majburlay oladilar. Shu sababli til o'rganish jarayonida xatolar bo'lishi tabiiy ekanligini hisobga olgan holda o'z xatolarini o'zlari tuzatishlariga imkon berish kerak. Yana ularga real hayotiy misollar, muhokamalar, keyslar orqali fikrlarini bildirish, muammolarni yechishga urinib ko'rishga imkon berish ularni yanada rag'batlantiradi. Har bir o'rganuvchining qiziqish va maqsadlariga mos materiallar tanlash ham ularga til bilish ko'nikmalarini yaxshilashga imkon beradi. Bu yoshdagi o'rganuvchilar hurmat qilinishni istaydilar. Shu sababli, o'rgatilayotgan ma'lumotlar ularning yoshiga mosligini tekshirish muhim. Masalan, online maqolalar, menular, xaritalar, YouTube tarmog'idagi didaktik, hayotiy yoki komik videolar va podkastlardan foydalanish ancha samaralidir."

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, turli yosh davrlarida til o'rgatish bir biridan farqlanadi. Turli yoshdagi o'rganuvchilar uchun turli xil didaktik va ilmiy materiallardan foydalanish samarali natijalar beradi. Dars jarauonida turli interaktiv o'yinlar tashkil qilish, dialoglar tuzdirish, role-play metodlaridan foydalanish jarayonlarida o'rganuvchilarda grammatik qoidalarni to'g'ri qo'llay olish qobiliyati shakllanadi. Bog'cha va undan kichik yosh davrlarida bolalarda til o'rganishga qiziqish yuqori bo'lishiga qaramasdan,

har qanday yoshda ham o'rganuvchilar shunday motivatsiya bilan o'qishlari mumkin va chet tilida mukammal so'zlashuv qobiliyatini o'zlarida namoyon etishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boliqulova F. Sh., "Turli yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish usullari". International conference on modern development of pedagogy and linguistics; Volume 01, Issue 10, 2024
2. <https://gujum.uz/ozbekiston/maktablarda-til-va-kasb-orgatishni-rivojlantirish-choralaribelgilandi/?imlo=l>
3. <https://sanako.com/how-to-teach-languages-to-different-age-groups>
4. <https://interoncof.com/index.php/germany/article/view/93>
5. <https://sanako.com/how-to-teach-languages-to-different-age-groups>
6. <https://esl-curriculum.com/teaching-kids-vs-adults/>